

## O'ZBEKISTONDA SUBSIDIYA MONITORINGINI VA SHAFFOFLIGINI OSHIRISH ORQALI JST STANDARTLARIGA MUVOFIQLASHTIRISH

**Islombek Ne'matillayev**

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti magistratura talabasi.

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174598>**

**Annotatsiya.** Ushbu ishda O'zbekistonning subsidiyalarni boshqarish tizimi va uning Jahon Savdo Tashkiloti (JST) standartlariga moslashtirilishi masalalari ko'rib chiqilgan va subsidiya.mf.uz elektron platformasining ahamiyati, uning shaffoflikni ta'minlash va subsidiya tizimini samarali boshqarishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, tizimning to'liq ishga tushirilishi va subsidiya ajratish jarayonida shaffoflikni oshirish zarurati haqida takliflar ilgari surilgan. Taklif etilgan yechimlar O'zbekistonning JST a'zoligiga tayyorgarlik jarayonini tezlashtirish va subsidiyalar tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** subsidiya monitoring, JST standartlari, subsidiya.mf.uz, davlat subsidiyalar, shaffoflik, elektron platforma, xalqaro integratsiya, O'zbekiston, Jahon Savdo Tashkiloti.

---

### **Kirish**

Subsidiyalar hukumatlar tomonidan iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida keng qo'llaniladigan asosiy iqtisodiy vositalardan biri hisoblanadi. Biroq, subsidiyalar noto'g'ri boshqarilgan taqdirdaadolatsiz raqobatni yuzaga keltirib, xalqaro savdo qoidalariga zid holatlar keltirib chiqarishi mumkin. Jahon Savdo Tashkiloti (JST) doirasida subsidiyalarni boshqarish bo'yicha aniq qoidalar mavjud bo'lib, ular subsidiyalarni tartibga solish va monitoring qilishni talab qiladi. Ushbu qoidalar davlat tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy yordamlar xalqaro savdo jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish jarayonida subsidiyalar tizimini JST standartlariga moslashtirish masalasida muhim bosqichlarni bosib o'tmoqda. Subsidiyalarни samarali boshqarish, monitoring qilish va shaffofligini ta'minlash ushbu jarayonning asosiy talablaridan biridir. JSTga a'zo davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, subsidiyalarni boshqarishning innovatsion va shaffof mexanizmlari nafaqat xalqaro talablarga javob beradi, balki milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

## Jahon Savdo Tashkilotining Subsidiyalar Tasnifi

Jahon Savdo Tashkilotining (JST) Subsidiyalar va Kompensatsiya Choralari to‘g‘risidagi Bitimida subsidiyalar uch toifaga bo‘linadi: taqiqlangan, amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan, va amalga oshirilishi mumkin bo‘lmagan subsidiyalar<sup>1</sup>.

- Taqiqlangan subsidiyalar: JST qoidalariga ko‘ra, eksportga bog‘langan yoki importni ustun qo‘yadigan subsidiyalar qat’iyan taqiqlangan. Bunday subsidiyalar xalqaro savdodaadolatsiz raqobatga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, eksport hajmiga bog‘langan moliyaviy yordam bu toifaga kiradi.

- Amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan subsidiyalar: Bu subsidiyalar faqatgina boshqa davlat iqtisodiyotiga zarar yetkazgan taqdirda JST tomonidan cheklanishi mumkin. Misol tariqasida, muayyan tarmoqlarni rivojlantirish yoki hududiy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan subsidiyalarni keltirish mumkin.

- Amalga oshirilishi mumkin bo‘lmagan subsidiyalar: JSTga ko‘ra, bunday subsidiyalar raqobatga zarar yetkazmasdan, ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratiladi. Masalan, ilmiy-tadqiqotlar yoki ekologik rivojlanish uchun ajratilgan moliyaviy yordam ushbu toifaga kiradi<sup>2</sup>.

## O‘zbekistonda subsidiyalarning joriy monitoringi

O‘zbekistonda subsidiyalarni monitoring qilish tizimi so‘nggi yillarda sezilarli islohotlardan o‘tmoqda. Ayniqsa, 2024-yilda qabul qilingan 193-sonli Prezident qarori tadbirkorlik subyektlariga subsidiya, imtiyoz va preferensiyalarni ajratish tartiblarini takomillashtirishga yo‘naltilirilgan. Ushbu qaror subsidiyalarning samaradorligini oshirish, ularni iqtisodiyotga ta’sirini tahlil qilish va noefektiv subsidiyalarni yo‘q qilishni nazarda tutadi<sup>3</sup>. Ushbu qaror asnosida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishga tushirilgan **subsidiya.mf.uz** elektron platformasi davlat budgetidan ajratiladigan subsidiyalar tizimini takomillashtirish va shaffofligini ta’minlashga qaratilgan muhim qadam hisoblanadi. Mazkur platforma orqali 83 turdagι subsidiyalar elektronlashtirilgan bo‘lib, fuqarolar, yuridik shaxslar va ehtiyojmand xotin-qizlar uchun mo‘ljallangan turli subsidiyalarni olish imkoniyatini yaratadi. Platformada 18 ta vazirlik va idoralar tomonidan beriladigan subsidiyalar to‘g‘risidagi ma'lumotlar jamlangan bo‘lib,

<sup>1</sup> Hwang, H. (2018). Entrusted or Directed Subsidies in WTO Disputes. *Journal of International and Area Studies*, 25(2), 21–36. <https://www.jstor.org/stable/26909942>

<sup>2</sup> WTO. *Agreement on Subsidies and Countervailing Measures*. URL: [https://www.wto.org/english/docs\\_e/legal\\_e/24-scm.pdf](https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/24-scm.pdf).

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.05.2024 yildagi PQ-193-son

foydalananuvchilar o'zlariga kerakli yo'naliш bo'yicha subsidiya olish uchun onlayn ariza topshirish imkoniyatiga ega.

Tizim orqali jismoniy va yuridik shaxslar nafaqat subsidiya olish uchun ariza topshirishi, balki mavjud subsidiya turlari, ularning shartlari va tartib-qoidalari haqida ham to'liq ma'lumot olishlari mumkin. Bundan tashqari, elektron platformasi mavjud bo'lмаган vazirlik va idoralar uchun subsidiya.mf.uz/dashboard veb-dasturi orqali maxsus shaxsiy kabinetlar yaratilgan bo'lib, bu orqali ular o'z subsidiyalari bo'yicha ma'lumotlarni kiritish va arizalarni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'lishadi<sup>4</sup>.

Bu elektron platforma O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayoniga sezilarli hissa qo'shishi mumkin. Birinchidan, subsidiya.mf.uz platformasi davlat tomonidan beriladigan subsidiyalar tizimining shaffofligini ta'minlaydi, bu esa JSTning asosiy talablaridan biridir. Bundan tashqari, platforma orqali barcha subsidiyalar va ularning ajratilish mezonlari ochiq va aniq ko'rsatilgani, shuningdek, subsidiyalar monitoringi elektron tarzda amalga oshirilishi, O'zbekistonning savdo va investitsiya muhitining xalqaro standartlarga mosligini namoyish etadi. Shuningdek, platforma subsidiyalarning iqtisodiy ta'sirini baholash imkoniyatini beradi, bu esa JSTning savdoga ta'sir qiluvchi subsidiyalarni monitoring qilish va tartibga solish talablariga javob beradi. Bu tizim orqali O'zbekiston o'z subsidiya siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirishni osonlashtiradi va JST a'zoligiga tayyorgarlik jarayonida muhim qadamlardan biri sifatida xizmat qiladi. JSTga a'zo davlatlarning O'zbekiston bilan savdo munosabatlarini rivojlantirishda ishonchini oshirishi ham mumkin, chunki ular mamlakatdagi subsidiyalar tizimi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishadi.

### Muammolar

Ammo lekin O'zbekistonning **subsidiya.mf.uz** elektron platformasini to'liq ishga tushirishda bir qator muammolar mavjud. Birinchi muammo – bu platformani amalga oshirishdagi kechikish. Platforma 2021-yilda joriy etilishi rejalashtirilgan bo'lsa-da, hozirda 2024-yil bo'lishiga qaramay, u hali to'liq ishga tushirilmagan va ba'zi funksiyalar to'liq ishlamayotgani kuzatilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekistonda subsidiyalarni ajratish jarayonida shaffoflik yetishmayotgani ham asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ko'plab subsidiyalar tadbirkorlik subyektlariga berilayotganida ommaga ochiq xabar berilmaydi. Shu sababli, subsidiyalarni olish

<sup>4</sup> Kunu.uz. (2021). Davlat subsidiyalarini olish Uchun Elektron Platforma Ishga tushirildi. U Qanday Ishlaydi? Retrieved from <https://kun.uz/news/2021/09/23/davlat-subsidiyalarini-olish-uchun-elektron-platforma-ishga-tushirildi-u-qanday-ishlaydi?q=%2Fnews%2F2021%2F09%2F23%2Fdavlat-subsidiyalarini-olish-uchun-elektron-platforma-ishga-tushirildi-u-qanday-ishlaydi>

imkoniyati teng taqsimlanmayotgani haqida xavotirlar mavjud. Bunday yopiq tizim aholining davlat tomonidan ko'rsatilayotgan iqtisodiy yordamga bo'lgan ishonchini pasaytiradi.

Xususan, ayrim subsidiyalar davlat organlari yoki ular bilan yaqin aloqadagi subyektlarga imtiyozli tarzda ajratilayotgani haqida jurnalistik surishturuvlari paydo bo'lishi bu muammoning jiddiyligini ko'rsatadi.

### **Takliflar**

Subsidiyalarni monitoring qilish tizimini yaxshilash uchun bir nechta muhim takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, platformaning to'liq ishga tushirilishini ta'minlash zarur, chunki mavjud kechikishlar tizimning samaradorligini susaytiradi. Buning uchun barcha texnik va tashkiliy muammolarni tezkor hal etish, tizimni yangilab borish va foydalanuvchilarga qulaylik yaratish lozim. Shuningdek, subsidiyalarni ajratish jarayonida yanada yuqori darajada shaffoflikni ta'minlash zarur. Buning uchun subsidiya olish uchun ariza topshirish jarayonlarini hamda ajratilish mezonlarini ommaga to'liq va ochiq ravishda e'lon qilish kerak.

JST, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF), Jahon Banki va Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) birgalikda "Subsidy Platform" (<https://www.subsidydata.org>)ni ishga tushirganlar. Ushbu platforma davlat subsidiyalarining hajmi, ko'lami va iqtisodiy ta'siri haqidagi ma'lumotlarni bir joyda to'playdi va bu davlatlar o'rtaida subsidiya ma'lumotlarini taqqoslash va monitoring qilish imkoniyatini yaratadi<sup>5</sup>. Keyingi bosqichda, O'zbekiston ushbu milliy platforma bilan integratsiya qilishi lozim. Bu integratsiya O'zbekistonga subsidiyalarni xalqaro miqyosda taqqoslash va monitoring qilish imkoniyatini yaratadi, shuningdek, global savdo va iqtisodiy hamkorlikda O'zbekistonning shaffofligi va ishonchliligin oshiradi. Integratsiya orqali, O'zbekiston xalqaro standartlarga mos ravishda subsidiyalarni boshqarish, ularning iqtisodiy ta'sirini tahlil qilish va global iqtisodiy aloqalarda faolligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

### **Xulosa**

O'zbekistonning subsidiya.mf.uz elektron platformasi JST standartlariga moslashish yo'lida muhim qadam bo'lib, u subsidiyalarning shaffofligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Biroq, platformani to'liq ishga tushirishdagi kechikishlar va subsidiyalarni ajratish jarayonidagi shaffoflik yetishmovchiligi kabi muammolar mavjud. Ushbu muammolarni hal etish uchun platformaning texnik muammolarini bartaraf etish, subsidiyalarni ajratish jarayonini yanada ochiq qilish va xalqaro "Subsidy Platform" bilan integratsiyalashish tavsiya etiladi. Bu islohotlar O'zbekistonning

---

<sup>5</sup> Subsidy Platform. URL: <https://www.subsidydata.org>.

JST a'zoligiga tayyorgarlik jarayonini tezlashtirishi va milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsiyalashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

## REFERENCES

1. Hwang, H. (2018). Entrusted or Directed Subsidies in WTO Disputes. *Journal of International and Area Studies*, 25(2), 21–36. <https://www.jstor.org/stable/26909942>
2. WTO. *Agreement on Subsidies and Countervailing Measures*. URL: [https://www.wto.org/english/docs\\_e/legal\\_e/24-scm.pdf](https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/24-scm.pdf).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.05.2024 yildagi PQ-193-son
4. Kun.uz. (2021). Davlat subsidiyalarini olish Uchun Elektron Platforma Ishga tushirildi. U Qanday Ishlaydi? Retrieved from [https://kun.uz/news/2021/09/23/davlat-subsidiyalarini-olish-uchun-elektron-platforma-ishga-tushirildi-u-qanday-ishlaydi](https://kun.uz/news/2021/09/23/davlat-subsidiyalarini-olish-uchun-elektron-platforma-ishga-tushirildi-u-qanday-ishlaydi?q=%2Fnews%2F2021%2F09%2F23%2Fdavlat-subsidiyalarini-olish-uchun-elektron-platforma-ishga-tushirildi-u-qanday-ishlaydi)
5. Subsidy Platform. URL: <https://www.subsidydata.org>.